

BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINING IJODIY QOBILIYATLARINI RIVOJLANTIRISHDA SINERGISTIK YONDASHUVNING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI

Qo'qon universiteti "Filologiya" kafedrası o'qituvchisi

Tursunova Namunaxon Xaydarali qizi

Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi IV bosqich talabasi

Tojikarimova Moxira Anvarjon qizi

Annotatsiya: Mazkur matnda O'zbekiston ta'lim tizimidagi zamonaviy islohotlar kontekstida boshlang'ich sinf o'quvchilarining ijodiy salohiyatini rivojlantirish masalalari yoritilgan. Maqolada an'anaviy ta'limning cheklovlari va XXI asr talablariga javob beruvchi sinergistik yondashuvning afzalliklari tahlil qilingan. L.S.Vygotskiy, J.Piaget va V.A.Krutetskiy kabi olimlarning nazariyalari hamda zamonaviy tadqiqotchilarning (Masharipova, Qodirov) tajribalariga tayanib, o'quvchini o'z-o'zini rivojlantiruvchi faol subyekt sifatida shakllantirish metodologiyasi ko'rsatib o'tilgan. Sinergetik tamoyillarning (hamkorlik, o'z-o'zini tashkil qilish, integratsiya) ijodiy tafakkur darajasini oshirishdagi samaradorligi dalillangan.

Аннотация: В данной работе рассматриваются вопросы развития творческого потенциала учащихся начальных классов в контексте современных образовательных реформ в Узбекистане. Анализируются ограничения традиционного обучения и преимущества синергетического подхода, отвечающего требованиям XXI века. На основе теорий Л.С. Выготского, Ж.Пиаже, В.А.Крутецкого и современных исследований обоснована методология формирования ученика как активного саморазвивающегося субъекта.

Abstract: This text examines the issues of developing the creative potential of primary school students in the context of modern educational reforms in Uzbekistan. It analyzes the limitations of traditional education and the advantages of the synergetic

approach that meets the demands of the 21st century. Based on the theories of such scholars as L.S.Vygotsky, J.Piaget, V.A.Krutetsky, and contemporary researchers, the methodology for forming a student as an active self-developing subject is substantiated.

Kalit soʻzlar: Boshlangʻich taʼlim, sinergetik yondashuv, ijodiy qobiliyat, oʻz-oʻzini tashkil qilish, intellektual salohiyat, mustaqil fikrlash, fanlararo integratsiya, taʼlim islohoti, innovatsion pedagogika, hamkorlik.

Ключевые слова: Начальное образование, синергетический подход, творческие способности, самоорганизация, интеллектуальный потенциал, самостоятельное мышление, междисциплинарная интеграция, реформа образования, инновационная педагогика, сотрудничество.

Keywords: Primary education, synergetic approach, creative abilities, self-organization, intellectual potential, independent thinking, interdisciplinary integration, education reform, innovative pedagogy, collaboration.

Hozirgi kunda Oʻzbekiston Respublikasida taʼlim tizimini tubdan isloh qilish, oʻquvchilarning intellektual va ijodiy salohiyatini rivojlantirish davlat siyosatining ustuvor yoʻnalishlaridan biriga aylangan. Oʻzbekiston Respublikasining “Taʼlim toʻgʻrisida”gi qonuni¹, “Maktab taʼlimini rivojlantirish konsepsiyasi”² va mamlakatimiz Prezidentining tegishli farmon va qarorlarida oʻquvchi shaxsini har tomonlama rivojlantirish, ularning mustaqil va ijodiy fikrlash qobiliyatlarini shakllantirish masalasiga alohida eʼtibor qaratilgan. Zero, zamonaviy taʼlim tizimidan koʻzlangan asosiy maqsad faqat bilimdon emas, balki ijodkor, tashabbuskor va mustaqil fikrlovchi avlodni tarbiyalab yetishtirish hisoblanadi.

XXI asr bilimlar iqtisodiyoti va innovatsiyalar davri. Zamonaviy jamiyat faqat bilim va koʻnikmaga ega boʻlgan emas, balki ijodiy fikrlay oladigan, muammolarga noodatiy

¹ <https://www.lex.uz/actinfo/respondents/-16188>

² <https://president.uz/oz/lists/view/5199>

yechim topa biladigan shaxslarni talab qilmoqda. Bu esa, o‘z navbatida, ta’lim-tarbiya jarayonining mazmuni va metodologiyasiga yangicha talablar qo‘ymoqda: darsxonada nafaqat bilim berilsin, balki bolaning ichki ijodiy salohiyati uyg‘otilsin, rivojlantirilsin va yo‘naltirilsin.

Ijodiy qobiliyat bolaning yangilik yaratish, muammolarga noodatiy yechim topish, o‘z g‘oya va qarashlarini faoliyat davomida amalda qo‘llash imkoniyatidir. Ijodkorlik bu tafakkurning eng oliy shakli bo‘lib, u sifat jihatdan yangi moddiy va ma’naviy boyliklar yaratuvchi inson faoliyati jarayonini o‘z ichiga oladi. Psixolog olim V.A.Krutetskiy esa “qobiliyat faqat mehnatda namoyon bo‘libgina qolmaydi, balki mehnatda shakllanadi, kamol topadi, barq urib yashnaydi ham³”, deb ta’kidlagan. Demak, ijodiy qobiliyat tug‘ma emas, balki maqsadli pedagogik ta’sir va faoliyat jarayonida shakllanadigan sifatdir.

Biroq pedagogik amaliyotni kuzatish shuni ko‘rsatadiki, ijodiy qobiliyatni rivojlantirishga e’tibor hali yetarli darajada emas: ko‘pchilik o‘qituvchilar an’anaviy o‘qitish usullaridan foydalanib, o‘quvchini asosan tayyor bilim qabul qiluvchi sifatida ko‘rib chiqadilar. Natijada boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining tabiiy ijodiy faolligi asta-sekin so‘nib boradi, ularning mustaqil fikrlash, kashfiyotchilik va tashabbuskorlik sifatлари to‘liq rivojlanmay qoladi. Bu holat boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining zamonaviy, samarali pedagogik yondashuvlarga bo‘lgan ehtiyojini yanada oshirmoqda.

Sinergistik yondashuv — murakkab tizimlarning o‘z-o‘zini tashkil qilish qonuniyatlariga asoslangan zamonaviy ilmiy paradigma. “Sinergistik” atamasi yunoncha “birgalikdagi harakat”, “hamkorlik” ma’nosini anglatib, ta’lim tushunchasiga juda yaqin turadi. sinergistik yondashuv ta’lim jarayoniga tatbiq etilganda o‘quvchini passiv bilim qabul qiluvchi sifatida emas, balki o‘z rivojlanishini o‘zi boshqara oladigan faol tizim sifatida ko‘rib chiqadi. Zamonaviy pedagogika fanida sinergistik yondashuv va ijodiy qobiliyat o‘rtasidagi munosabat alohida ilmiy yo‘nalish sifatida shakllanib kelmoqda bu ikki tushuncha o‘zaro bir-birini to‘ldiruvchi xususiyatlarga ega.

³ <https://www.in-academy.uz/index.php/zdpp/article/download/11383/8151>

Shu bilan birga, sinergistik yondashuv pedagogika faniga kirib kelgan bo'lsada, boshlang'ich ta'lim amaliyotida, xususan O'zbekiston maktablarida bu yondashuv hali keng qo'llanilmayapti. Ilmiy adabiyotlar tahlili ko'rsatadiki, sinergistik yondashuvning ijodiy qobiliyatni rivojlantirishdagi o'rni yetarlicha o'rganilmagan: mavjud tadqiqotlar ko'proq shaxs shakllantirishga yoki umummadaniy kompetensiyaga qaratilgan. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining ijodiy qobiliyatini rivojlantirishda sinergistik yondashuvning maxsus metodologik asosi esa hali to'liq ishlab chiqilmagan. Ushbu tadqiqot aynan mazkur ilmiy bo'shliqni to'ldirishga qaratilgan.

Mavzuni o'rganish jarayonida mavzuga oid ko'plab mahalliy va xorijiy adabiyotlar hamda maqolalar chuqur tahlil qilindi. O'rganilgan manbalarda boshlang'ich sinf o'quvchilarining ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishning nazariy asoslari, pedagogik shart-sharoitlari va metodik mexanizmlari keng yoritilganligini guvohi bo'ldik. Shuningdek, sinergetik yondashuvning ta'lim jarayonida qo'llanish imkoniyatlari, uning tizimlilik, o'zaro ta'sir va integrativlik tamoyillari asosida ijodiy tafakkurni shakllantirishdagi ahamiyati alohida ta'kidlangan.

L.S.Vygotskiy bolaning ijodiy tafakkurini ijtimoiy muhit va faoliyat bilan chambarchas bog'liq holda o'rgangan. Uning "yaqin rivojlanish zonasi" nazariyasi shuni ko'rsatadiki, bola o'qituvchi yoki tengdoshlarining qo'llab-quvvatlashi bilan o'z mustaqil imkoniyatlaridan yuqori natijaga erisha oladi. Bu tamoyil sinergistik yondashuvning hamkorlik (sinergiya) tamoyili bilan to'liq mos keladi: birgalikdagi faoliyat alohida faoliyatdan ko'ra kuchliroq ijodiy natija beradi

J.Piaget bolaning bilish faoliyati bosqichlarini o'rgangan va boshlang'ich sinf yoshidagi bolalar konkret operatsiyalar bosqichida ekanligini ta'kidlagan. Bu yoshda bolalar faol harakat, ko'rgazmali tajriba va muammoli vaziyatlar orqali yangi bilimlarni o'zlashtiradi. Shu sababli, sinergistik yondashuvning amaliy, interfaol va muammoga asoslangan metodlari aynan boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun psixologik jihatdan muvofiq hisoblanadi.

Psixolog olim V.A.Krutetskiy qobiliyat to'g'risida muhim xulosa chiqargan: "qobiliyat faqat mehnatda namoyon bo'libgina qolmaydi, balki mehnatda shakllanadi, kamol topadi, barq urib yashnaydi ham". A.V.Petrovskiy esa "qobiliyat faqat o'sishdagina mavjud bo'ladi" deb ta'kidlagan. Bu ikki olimning fikri ijodiy qobiliyatning tug'ma emas, balki maqsadli ta'lim va faoliyat jarayonida shakllanadigan sifat ekanligini isbotlaydi.

I.A.Zimnyaya kompetensiyaviy yondashuv doirasida ijodiy qobiliyatni shaxsning muhim kalit kompetensiyasi sifatida ta'riflagan. Uning fikricha, zamonaviy ta'lim o'quvchida nafaqat bilim, balki ijodiy fikrlash, mustaqil qaror qabul qilish va noaniq vaziyatda harakat qila olish kompetensiyalarini shakllantirishga yo'naltirilgan bo'lishi lozim.

G.M.Kojaspirova ta'kidlaganidek, "sinergistik" atamasi yunoncha "birgalikdagi harakat", "hamkorlik" ma'nosini anglatib, ta'lim tushunchasiga juda yaqin turadi. sinergistik fikrlash usuli ochiqlik, dialogizm va muloqot bilan ajralib turadi. E.K.Nikitinaning fikricha esa, sinergistik pedagogik nazariyada yo'qolgan aloqalarni amaliy haqiqat bilan tiklashga va ta'lim tizimining turli komponentlari o'rtasida "kommunikativ ko'priklarni" yaratishga imkon beradi.

Kovalevich sinergistika yangi pedagogikaning "sherigi" ekanligini ta'kidlagan. Uning fikricha, sinergistik ta'lim o'z-o'zini tarbiyalash va insonni o'z imkoniyatlarini rag'batlantiradigan o'z taqdirini belgilashdir. Bu g'oya sinergistik yondashuvning ijodiy qobiliyatni rivojlantirishdagi rolini yanada oydinlashtiradi: o'quvchi faqat bilim oluvchi emas, balki o'z rivojlanishini o'zi boshqara oladigan faol subyektga aylanadi.

Qodirov sinergistik yondashuvning to'rtta asosiy pedagogik tamoyilini aniqlagan: o'z-o'zini tashkil qilish, interfaol o'zaro ta'sir, butunlik va tizimlilik. Uning tadqiqotlarida ushbu tamoyillar asosida tashkil etilgan ta'lim jarayonida o'quvchilarning ijodiy faolligi, mustaqil fikrlashi va madaniy kompetensiyasi sezilarli darajada rivojlanganligi aniqlangan. Ayniqsa, fanlararo integratsiya mexanizmi o'quvchilarda yaxlit dunyoqarash va ijodiy tafakkurni shakllantirishda yuqori samaradorlik ko'rsatganligi qayd etilgan.

Masharipova eksperimental tadqiqotida sinergistik yondashuv asosida tashkil etilgan darslar va an'anaviy darslarni qiyosiy o'rganib, muhim natijalar olgan. An'anaviy darsda o'quvchilarning darsga ishtiyoqi pasayib, passiv bo'lib qolganligi kuzatilgan. sinergistik yondashuv qo'llanilgan tajriba guruhida esa fanlararo bog'liqlikni tushunish darajasi 25/30% ga oshgan, kritik va ijodiy tafakkur sezilarli rivojlangan, ichki motivatsiya ortgan hamda guruhiiy ishlarda hamkorlik orqali yangi bilimlar paydo bo'lishi kuzatilgan.

Xulosa:

Xulosa qilib aytganda boshlang'ich sinf o'quvchilarining ijodiy qobiliyatini rivojlantirish zamonaviy ta'lim tizimining muhim vazifalaridan biridir. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni hamda davlat siyosatiga oid konseptual hujjatlarda shaxsning har tomonlama kamol topishi, mustaqil va ijodiy fikrlashi ustuvor yo'nalish sifatida belgilangan.

Sinergistik yondashuv esa ta'lim jarayonida o'quvchini passiv bilim qabul qiluvchi emas, balki o'z rivojlanishini boshqara oladigan faol subyekt sifatida ko'radi. Tadqiqotlar natijalariga ko'ra, mazkur yondashuv asosida tashkil etilgan darslar o'quvchilarning ichki motivatsiyasi, fanlararo tafakkuri, mustaqil va ijodiy fikrlash qobiliyatini sezilarli darajada oshiradi.

Demak, boshlang'ich ta'lim jarayoniga sinergistik yondashuvni tizimli ravishda joriy etish o'quvchilarning ijodiy salohiyatini samarali rivojlantirish, ularni zamonaviy jamiyat talablariga mos, tashabbuskor va innovatsion fikrlovchi shaxs sifatida shakllantirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Turayev B.O. Olamning sinergetik fazo va vaqt manzarasi // Sinergetik paradigma: muammo va imkoniyatlar. Ilmiy-nazariy seminar materiallari.-T.: 2013;
2. Kulmatov, P. M., & Tajibayev, M. A. (2021). INTERACTION OF MORAL, AESTHETIC AND ECOLOGICAL EDUCATION. Scientific progress, 2(1), 1149-1154.

3. E.N. Knyazeva, S.P. Kurdyumov, Synergetics: Time Non-Linearity and Coevolution (Landscape, Moscow, 2007).
4. <https://www.gazeta.uz/oz/2017/07/01/nutq/>
5. <https://lex.uz/docs/-5013007>
6. <https://lex.uz/docs/-1685726>
7. <https://bestpublication.net/index.php/jiser/article/download/1427/1353/2639>